


# Ilm ahli doim izlanishda bo'lishi darkor!

Manba: [mininnovation.uz](http://mininnovation.uz)

Men Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan tanlovlardan birida ishtirok etib, "Ichak yallig'lanish kasalliklarining oldini olish va davolash uchun yangi biopreparat ishlab chiqish" mavzusida loyiha ilmiy rahbari sifatida tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritdim. Shu bois ham loyihalar uchun mavzular e'lon qilish, tanlovning o'tkazilishi tartibi, tanlov shartlari, loyiha ilmiy rahbarining oldiga qo'yiladigan talablardan xabarim bor. Albatta, loyiha yutib olishim oson bo'lmagan. Chunki loyihaning natijasi aniq mahsulotga qaratilgan bo'lishi va u mahsulot loyiha tugaganidan so'ng tijoratlashtirilishi kerak. Ekspertlar va Ilmiy-texnik kengash oldida loyiha taqdimoti jarayonidagi savol-javoblar, hatto, o'zimiz uchun yangilik bo'ldi, ularni o'zlashtirdik, yangi talablar va imkoniyatlarni kashf etdik. Ilmiy-texnik kengash a'zolari loyihamizning har bir jarayoni yuzasidan aniq harakatlarimiz haqida so'rab, shu asosda ilmiy rahbarligimdagi loyiha moliyalashtirishga tavsiya etildi.



Keyinchalik Ilmiy-texnik kengash a'zosi sifatida ham majlislarda ishtirok etdim. Kengash faoliyati olimlarni o'z ustida ishlashga, fanning yangiliklari, ilmiy izlanishlar natijasida iqtisodiyot tarmoqlari uchun aniq tijoratlashtiriladigan mahsulotlardan boxabar bo'lish, har bir loyihani ekspert sifatida baholash uchun ushbu mavzudagi jahon tajribasini o'rganishga, tahlil qilish va taqqoslashga undaydi. Albatta, bu jarayon olimning salohiyati, bilimini yanada oshiradi.

Loyiha bizga samarali ishlash imkoniyatini berdi. Asosiy loyihamiz mavzusi bo'yicha tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega bo'ldik. Hozirda qishloq xo'jaligi va veterinariya bo'yicha ikkita ishlanmamizni sinovdan o'tkazaymiz. Shu yilda 2 ta yangi patent oldik va yana bitta foydali patentni rasmiylashtirishga tayyorladik. Biokonservant ishlab chiqarishga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi uchun ishlanmamizni 3 xil

yo'nalishda — turli yem-xashak turlarini silos va senaj qilish uchun biokonservant, quruq mevalarni konservatsiyalash va biostimulyator sifatida – sinadik va yaxshi natijalar oldik. Shuningdek, chorvachilik sohasida mahalliy xom ashyo va bakteriyalar asosida yangi ozuqa qo'shimchasi ishlab chiqib, baliqchilik va quyunchilikda sinadik. Bunday biopreparatlar hali O'zbekistonda mavjud bo'lmagani bois, ularni yaratish juda muhim sanaladi. Hozir tadqiqotlar davom etmoqda.



Shu o'rinda Vazirlar Mahkamasi qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengashlar to'g'risidagi nizom" tasdiqlanganini ham qayd etmoqchiman. Hujjatda Ilmiy-texnik kengashning asosiy vazifalari va funksiyalari, raisi va a'zolarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, ITK faoliyatini tashkil etish masalalari aniq belgilab berilgan.

Innovatsion rivojlanish vaziri boshchiligida Ilmiy-texnik kengash tarkibini rotatsiya qilishga bag'ishlangan majlisda rotatsiya qilinish sabablari, Kengash faoliyatiga jalb qilinadigan olimlar va ularning salohiyati haqida tushuntirildi. Ilmiy-texnik kengash a'zolari oldiga eng avvalo halollik vaktsinasini qabul qilish vazifasi qo'yilib, Kengashga ko'rish uchun berilgan loyihalarni shaffof, odilona, obyektiv ko'rish kerakligi tushuntirildi. Bu esa bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir.

Ilmiy-texnik kengash a'zolariga bugungi kundagi O'zbekiston fani tendentsiyasi, vazirlik tomonidan e'lon qilinayotgan loyihalar uchun tanlovlar tizimi bo'yicha olimlar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish kerakligi aytilib, bu borada olimlarni jamiyatning faol ishtirokchisiga aylanishlari uchun chorlashimiz, ularning publikatsion faolligini oshirish, mahalliy ilmiy jurnallarimiz bilan bir qator chet elning nufuzli jurnallarida ilmiy maqolalari bilan faol ishtirok etishlarida asosiy yetakchi bo'lishimiz tushuntirildi. Binobarin, loyihalarda qo'yiladigan talablardan biri Scopus bazasiga kiruvchi jurnallarda maqola nashr qilingan bo'lishi kerak. Afsuski, bugungi kunda bunday jurnallarda aksariyat olimlarimiz nashr qilishga erishmagan yoki buning imkoniyati yo'q deb hisoblaydilar. Vazirlik bu masalani ham hal qilib qo'ygan, Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan Proofreading service xizmati tashkil etilgan bo'lib, unda aynan shu bazaga kiruvchi jurnallar uchun maqolalarni tayyorlash borasida olimlarga bepul xizmat ko'rsatiladi. Afsus, bu haqida ham ko'pchilik olimlar bexabarligi ma'lum bo'ldi. Shu o'rinda aytib o'tmoqchimanki, vazirlikning rasmiy saytida e'lon qilinadigan yangiliklardan muntazam ravishda xabardor bo'lib turishimiz kerak.

Yosh olimlarga esa aytadigan gapim: o'z kuchingiz, qilayotgan ishingizga ishonib, orqaga chekinmang, isbotlang, tasdiqlang, lekin tushkunlikka tushmang! Ilm ahli doim izlanishda, harakatda bo'lishi darkor!

**Go'zal Qutliyeva,**

**O'zR FA Mikrobiologiya instituti xodimi,**

**“Qishloq xo'jaligi, veterinariya va atrof muhitni muhofaza qilish fanlari”**

**bo'yicha Ilmiy-texnik kengash a'zosi.**